

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O‘QITISHDAGI PSIXOLOGIK TO‘SIQLAR VA ULARNIG YECHIMLARI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

*Hoshimjonova Mohira Luxmonjon qizi*

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*“Ingliz tili va adabiyoti” fakulteti 1-bosqich talabasi*

*Email: mohira11062005@gmail.com*

*O‘quvchi o‘qituvchini raqib emas, balki namuna  
sifatida ko‘rsa, o‘zini undan ustun qo‘ymaydi.*

**V.G.Belinskiy**

**Annotatsiya:** So‘ngi yillarda chet tillarini, xususan ingliz tilini o‘rganisg har bir davlat ta’lim tizimida muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu maqolada boshlang‘ich sindf o‘quvchilariga chet tili ya’ni ingliz tilini dars mobaynida o‘qitishdagi psixologik muammolar, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi do‘stona aloqaning ahamiyatiga bag‘ishlangan. Zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalangan holda turli interfaol psixologik o‘yinlar yordamida qiziqarli o‘qitish usullari ham keltirilgan. Maqolada olib borilgan tadqiqotlat va tahlillar natijasida ingliz tilini chet tili sifatida boshlang‘ich sindf o‘quvchilariga o‘qitishning intensiv yo‘nalishlari hamda metodik tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sindf o‘quvchilar, innovatsion metodlar, Prezident qarori, uyali aloqa vositalari, o‘z kasbining mohir ustasi, “ABC Song”.

### KIRISH

Hozirgi rivojlanib kelayotgan davrda yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga hamda dunyo miqyosida bolishga ko‘maklashish har bir davlatning oldida turgan burchidir desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Bu burchni amalga oshirish xalq ta’limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o‘qituvchilar ommasidan o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish, xilma-xil metodik usullarni o‘ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq qilish talab etiladi. Innovatsion metodlar va turli xil interfaol o‘yinlardan foydalangan holda o‘quvchilarini darslarga qiziqtirish o‘qituvchining ish faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa yoshlarning chet tillarini o‘rganishini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2021-yil 19-maydagagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5117-son qaroridir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda mamlakatda xorijiy tillarning o‘rganilishi uning siyosiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va xalqaro miqyosdagi munosabatlari kabi omillarga bog‘liqdir. Bu borada 2013-2014-yildan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili fani o‘qitib kelinmoqda. Bejizga boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga urg‘u bermayapmiz, chunki endigma yozishni, o‘qishni o‘rganayotgan bolaga unga notanish bo‘lgan so‘zlarni, boshqa millat madaniyatini o‘rgatishda muammolar uchrashi turgan gap. Misol uchun maktablarda o‘tkazilgan xulosalarga ko‘ra hozirgi davr bolalari uyali aloqalarga vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolgan, shu boiz ular bilan ishslash borgan sari qiyinlashib bormoqda. O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan o‘qituvchi ana shu paytda o‘zini qo‘lga ola bilishi, ularning mehrini, ishonchini qozonishi ular bilan do‘stona aloqalar o‘rnatishi umumiy qilib aytganda darsga qiziqish uyg‘otishi lozim. Bularga qo‘srimch ravishda o‘quv jarayonini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

-qo‘sish va she’rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo‘lgan, ma’noga ega bo‘lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o‘rgatish. Misol uchun 1-sinf o‘quvchilariga alifbo o‘rgatishda “ABC Song” Youtube ga qo‘yilgan videorolik orqali oson va qiziqarli o‘rgatish mumkin;

-aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar. Bunga misol qilib “Exercise Song For Kids” ni aytish mumkin;

-multfilmlar (“Gogo’s adventures”, “Peter Rabbit”)

Bolalar til o‘rganishda paytida multfilmdagi gaplarni to‘liq tushunmasligi mumkin, ammo undagi qahramonlar harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi. Albatta bu o‘quvchilar uchun qiziq va til o‘rganishlari uchun samarali yo‘l. Bilamizki, bolalar qiziquvchan. Ular bir xillakdan tez zerikadi. Shuning uchun ularga chet tili o‘rgatishda turli xil interaktiv o‘yinlar, qiziqarli o‘qitish usullardan foydalanish va har darsda bu usullarni yangilab borish lozim. Aks holda o‘quvchilar o‘qituvchining qanday dars o‘tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko‘rishadi. Bunday usullarni yangilab dars o‘tish o‘rganuvchining intilishini oshiradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda ingliz tili darslarini boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida uning fiziologik holati, yoshi va psixologik holatiga qarab darslar o‘rgatilsa maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa ular o‘yinqaroqlik qilgan paytda ularga ta’lim olish muhimligini t‘g‘ri tushintira bilish kerak. O‘quvchilarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, bir necha innovatsion metodlardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Mardonova. Boshlang'ich sinflarda ta'lif-tarbiyani takomillashtirish. "Sharq"-1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rghanishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chuqush chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 19-may PQ-5117-sonli qarori
3. J.Jalolov. – Ingliz tilini o'qitish metodlari – O'qituvchi nashriyoti 2(4), 141-146.
4. <https://nauchniyimpuls.ru/>